

## KUTUBXONALARNING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI

*Sharofova Muxlisaxon*

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti*

*"Kutubxona axborot faoliyati" 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda jamiyat hayotida kutubxonalarning o'rni, ahamiyati, ilmiy ta'limiy ma'daniy va ijtimoiy rivojlanishiga qo'shgan hissasi yoritib berilgan. Hozirgi kunda kutubxonalarga qaratilayotgan e'tibor, yaratilayotgan shart-sharoitlar hamda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, kutubxonalarning rivojlanishi uchun yaratilayotgan qonunlar hamda kutubxonalarning rivojlanishi uchun ko'rilayotgan bir qancha chora-tadbir masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Kutubxona, axborot, internit, elektron kutubxona, axborot resurs, kooperasiyalash, modernizatsiya.

Kutubxonalar hozirgi kunda jamiyat hayotida muhim manba bo'lib xizmat qilib kelyapti. Kutubxonalar jamiyatdagi axborot almashinuvi uchun muhim markazlar bo'lib kitobxonlarning bilim olishiga imkoniyat yaratuvchi ochiq va erkin maskan hisoblanadi. Kutubxonalar har qanday yo'nalish vakillarini axborot manbai bilan ta'minlaydi. Hozirgi kunda qanday yo'nalishda ish yuritishdan qat'iy nazar o'zining rivojlanishi uchun kutubxonadan foydalanmaydigan yurtdoshlarimizni uchratish qiyin. Aynan kutubxonaga borib kitob o'qimasligi mumkin, lekin elektron kutubxona foydalanuvchilarini hozirgi kunda ko'p uchratishimiz mumkin. Yildan-yilga kutubxonalarning jamiyatdagi roli ortib boryapti va kutubxonalar rivojlanib boryapti. Elektron kutubxonalar ham kundan -kunga rivojlanib, o'zining foydalanuvchilarni ko'paytirib kelmoqda. Elektron kutubxonalar ma'lumotga tez va oson kirib, yurtdoshlarimizning talabini qondirib kelyapti.

Bugungi kunda axborotlar, ma'lumotlar va bilim olishning boshqa manbalari asosan kutubxonalarda yig'ilgan bo'lib, bu foydalanuvchilarga kutubxona fondidagi manbalardan bemalol foydalanish imkonini beradi. Axborot va internet texnologiyasining rivojlanishi kutubxonalar oldiga o'zlarida mavjud zahiralarni tartibga solish elektron ma'lumotlar bazasini yaratish, axborot resurslarini kooperasiyalash ularga erkin kirish va unumli foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish vazifalarini qo'ydi. Ana shu zaruratdan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida" gi Qarori mamlakatimiz kutubxonachilik ishi sohasida axborot va telekommunikatsiya texnologiyasining rivojlantirish va takomillashtirish uchun keng yo'l ochib berdi. Qaror axborot-kutubxona bilan ta'minlashni takomillashtirish kutubxonachilik ishini

rivojlantirish va takomillashtirish uchun butun kutubxonachilik tizimini tubdan isloh qilish uchun asos bo'ldi. Qarordan so'ng, kutubxonalar o'z xususiy elektron resurslarini yaratish, mamlakatimizning yig'ma elektron katalogini yaratishda faol ishtirok etish, internit va boshqa axborot tarmoqlaridan unumli foydalanangan holda aholiga kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishning zamonaviy yangi shakl va usullarini ishlab chiqish uchun faoliyat yurita boshladilar.

Kutubxonalarga qaratilgan e'tibor, ayniqsa, ularning raqamli transformatsiyasi va ilmiy, madaniy rivojlanishidagi roli bilan bog'liq qonunlar va normativ hujjatlar orqali amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Kutubxona-axborot faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 3-bobida mamlakatimizda kutubxona-axborot tizimi belgilab berilgan. Uning 9-moddasida kutubxona-axborot tizimi hamda kutubxona-axborot muassasalarining turlari qonunan tartibga solingan va ta'rif berilgan. Qonunda belgilanishicha, kutubxona-axborot tizimi yagona tashkiliy va uslubiy ta'minot asosida faoliyat ko'rsatuvchi kutubxona-axborot muassasalari majmuidan iborat. Bu qonunlar kutubxonalarga zarur huquqiy va tashkiliy sharoitlar yaratishga, ularning faoliyatini samarali boshqarishga imkon beradi.

Kutubxonalarga yildan-yilga e'tibor kuchayib boryapti. Kutubxonalar zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanib, sharoitlarini yaxshilash bo'yicha davlat tomonidan investitsiyalar kiritilmoqda. Masalan, kutubxonalar uchun yangi zamonaviy binolar qurilmoqda, eski kutubxonalarda esa moderinizatsiya ishlari olib borilmoqda. Kutubxonalar o'rtasida milliy va xalqaro hamkorlik kengaymoqda. Bu hamkorlik, kutubxonalarga yangi resurslar, yangi tajribalar va eng yaxshi amaliyotlarni olib keladi. Kutubxonalar hozirgi kunda barcha foydalanuvchilarga teng imkoniyatalar yaratishga harakat qilmoqda. Imkoniyati cheklangan odamlar uchun maxsus xizmatlar tashkil etilyapti. Masalan, braille kitoblar, ovozli kitoblar, maxsus jihozlar taqdim etilyapti. Kutubxona xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha turli kurslar va seminarlar tashkil etilmoqda. Bu, o'z navbatida, kutubxonalarda xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi.

Hozirgi kunda ba'zi bir kutubxonalarda faqat maktab yoshidagi yoki undan katta kitobxonlarni emas balki yoshi kichik-kichik bo'lgan, ya'ni 2-3 yoshdan boshlangan bolachalarni, aniqrog'i kitobxonlarimizni ham uchratishimiz mumkin. Bunga misol qilib, Respublika bolalar kutubxonasini olishimiz mumkin. Bu kutubxonada bolachalar o'zlari kitoblarni o'qiy olmasada, lekin ota-onalarni ular uchun qiziqarli bo'lgan kitoblarni tanlab, ularni kitobxonlikka qiziqtirib kitoblarni mutolaa qilib berayotganini uchratishimiz mumkin. Bu kutubxona ham malakatimizdagi zamonaviy va ko'p tarmoqli jamoat maskani bo'lib, u bolalar va yoshlarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarib, yanada kamol toptirish uchun zarur bo'lgan barcha afzal jihatlarni o'zida mujassam etadi. Bu kutubxona ham yetarlicha sharoitlar bilan ta'minlangan.



“Dunyoda hech qachon bir xil tong otgan emas”. Mazkur ibora paydo bo’lganidan buyon ming yillar o’tdi. Bu –butun koinot, tabiat va bashariyat doimiy o’zgarishda, yangilanishda deganidir. Hozirgi kunda bizning xalqimiz hayotida ham yangi tong otmoqda. Bu –yangi taraqqiyot, yuksalish tongidir. El-yurtimiz dunyodagi eng rivojlangan davlatlarga xos hayot darajasiga erishish, yangi jamiyat qurishdek ulug’vor maqsadlar bilan yashamoqda. Keyingi yillarda hayotimizning barcha sohalarida keng qamrovli islohot va tub o’zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bunga misol qilib birgina hozirgi kunda kutubxonalarga qaratilayotgan e’tibor timsolini ko’rishimiz mumkin. Mamlakatimiz rahbari tomonidan kutubxonalarga, kutubxonachilarga alohida e’tibor qaratilyapti. Kutubxonachilar malakasini oshirish bo’yicha bir qancha islohotlar o’tkazilyapti. Qolaversa, kutubxonachilarning oyligi ko’tarilib, o’qituvchilar oyligiga tenglashtirish masalalari ko’rib chiqilyapti. Bundan bugungi kunda kutubxonalarga talab oshayotganini, kutubxonarga e’tibor qaratilayotgani ko’rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganimizda kutubxonalar hozirgi jamiyatda o’z ahamiyatini yo’qotmay, yangi rollarini muvaffaqiyatli bajarishda davom etmoqda. Hozirgi kunda kutubxonalar nafaqat kitob saqlash joylari, balki axborot almashish, bilim olish va ijtimoiy faollikni rivojlantirish markazlariga aylandi. Ular zamonaviy texnologiyalar orqali bilim va resurslarni keng jamoatchilikka taqdim etib, ilmiy izlanishlar va ta’limni qo’llab quvvatlaydi. Hozirgi kunda kutubxonalar faqat axborot tarqatish joylari bo’lib qolmay, balki jamiyatning ilmiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo’shayotgan muhim maskandir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yuldashev I.J. Kutubxona –axborot xizmati:nazariyasi va amaliyoti :o’quv qo’llanma/I.J.Yuldashev,O’.Nosirov.–Toshkent:Fan va ta’lim poligraf,2021.–352b.

2. Davlatov ,S.X.Kutubxonashunoslik:o'quv qo'llanma/S.X.Davlatov, O'.Nosirov , Z.Sh.Berdiyeva, A.N.O'razov.–Toshkent:Fan va ta'lim poligraf,2021.–423b.
3. Mirziyoyev,SH.M.Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi/SH.M.Mirziyoyev – Toshkent:O'zbekiston,2023.–416b.
4. <https://inlibrary.uz>
5. <https://lex.uz>